

Adhamjon Mamadiyorov,
O‘zbekiston Milliy universiteti
Tabiiy geografiya kafedrasи mustaqil izlanuvchisi

ARNASOY TUMANI AHOLISI VA UNING DEMOGRAFIK SALOHIYATI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Arnasoy tumani aholisi va tumanning demografik salohiyati hamda imkoniyatlari yoritilgan. Maqola Arnasoy tumanining statistik axborotnomasi, shuningdek, aholi geografiyasi va geodemografiyaga oid adabiyotlar asosida yozilgan.

Kalit so‘zlar: Arnasoy tumani, aholi, aholi soni dinamikasi, demografiya, demografik jarayonlar, aholi zichligi, urbanizatsiya darajasi, tabiiy o‘sish, tug‘ilish, o‘lim, nikoh, ajralish, mehnat resursi, migratsiya.

НАСЕЛЕНИЕ АРНАСАЙСКОГО РАЙОНА И ЕГО ДЕМОГРАФИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ

Адхамджон Мамадиёров,
Национальный университет Узбекистана

Независимый научный сотрудник кафедры естественной географии

Аннотация: В этой статье рассказывается о населении Арнасайского района, а также о демографическом потенциале и возможностях района. Статья написана на основе статистического бюллетеня Арнасайского района, а также литературы по географии населения и геодемографии.

Ключевые слова: Арнасайский район, население, динамика численности населения, демография, демографические процессы, плотность населения, уровень урбанизации, естественный прирост, рождаемость, смертность, брак, развод, трудовые ресурсы, миграция.

POPULATION OF ARNASOY DISTRICT AND ITS DEMOGRAPHIC POTENTIAL

Adhamjon Mamadiyorov

**Independent Researcher, Department of Natural Geography, National
University of Uzbekistan**

Annotation: This article covers the population of the Arnasoy district and the demographic potential and capabilities of the district. The article is based on the Statistical Bulletin of the Arnasoy district, as well as literature on population geography and geodemography.

Keywords: Arnasoy district, population, population dynamics, demography, demographic processes, population density, urbanization rate, natural growth, birth, death, marriage, divorce, labor resource, migration.

Kirish. Aholi ijtimoiy ishlab chiqarishning egasi yoki subyektdir, u bu jarayonning boshida va ayni vaqtda uning oxirida turadi. Chunki, ishlab chiqaruvchi kuch ham, iste'molchi ham aholidir. {5}

Har bir hududning, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida aholi sonining ortib yoki kamayib borishi, aholining umumiylar tarkibida mehnat yoshidagi aholi guruhining salmog'i, ularning demografik shakllanib borishi, shuningdek, bolalar va mehnat yoshidan yuqori bo'lgan qariyalar salmog'i ham juda muhimdir. Shuningdek, inson resurslarining miqdori va sifati mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atlarini, turmush darajasi ko'rsatkichlarini, jahon bozoridagi kuchi va raqobatbardoshligini belgilaydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). O'zbekiston aholi geografiyasi, hududlardagi demografik holatlar va o'zgarishlar haqida ko'plab olimlar tadqiqotlar olib borganlar. Z.M.Akramov, A.S.Soliyev, O.Ata-Mirzayev, Q.X.Abduraxmonov, M.Bo'riyeva va Z.N.Tojiyeva shular jumlasidandir.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlarda mamlakatimiz aholisi va demografik holati ko‘plab jihatdan o‘rganilgan, ammo Arnasoy tumani aholisi va tumanning demografik salohiyati o‘rganilmagan. Mazkur maqola aynan shu masalaga bag‘ishlanganligi bilan yuqoridagi ishlardan farq qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqotni olib borishda statistik ma’lumotlar tahlili, kartografik, geografik axborotlar tizimi (GIS), adabiyotlar va fond materiallari bilan ishslash kabi metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar:

O‘zbekiston Respublikasi aholi soni bo‘yicha dunyo miqyosida o‘rtacha demografik salohiyatga ega bo‘lgan davlat hisoblanadi. Uning aholisi, 2024 yil 1 yanvar ma’lumotlariga ko‘ra 36,8 mln kishini tashkil etadi. Bu borada, u jahon mamlakatlari orasida 43- va Markaziy Osiyo davlatlari orasida esa birinchi o‘rinni egallaydi.

O‘zbekiston Respublikasining markaziy viloyatlaridan biri bo‘lgan Jizzax viloyati mamlakatimizning iqtisodiy va demografik salohiyati shakllanishida o‘ziga xos o‘rinni egallaydi. Garchi, aholi soni bo‘yicha mamlakatda so‘nggi o‘rinlardan birini (Sirdaryo va Navoiy viloyatlaridan oldingi) egallagan bo‘lsa-da, uning mamlakat mehnat taqsimotida tutgan o‘rni, xo‘jaligining tarmoq va hududiy tarkibi, ixtisoslashuvi hamda demografik vaziyati o‘ziga xos hududiy xususiyat kasb etadi.

Jizzax viloyati aholisining son jihatdan ko‘payish sur’atlari har doim ham bir xil bo‘lмаган. Mutaxassislarning hisob-kitobiga ko‘ra oxirgi o‘ttiz yil ichida viloyat aholisi salkam to‘rt barobarga ko‘paygan. Buni qulay ijtimoiy-iqtisodiy va demografik omillar bilan bog‘lashimiz mumkin. {2}


Viloyatning sug‘orma dehqonchilikka ixtisoslashgan shimoli-sharqiy tumanlarida aholi soni dinamikasi va demografik jarayonlar dolzarb ahamiyat kasb etadi. Xususan, Arnasoy tumanida demografik jarayonlarni o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, tumanning aholi soni va tarkibidagi o‘zgarishlarni aniqlash tuman rivojlanishini rejorashtirishda katta ahamiyatga ega.

Arnasoy tumani Jizzax viloyatining shimoli-sharqiy qismida, Tuzkon ko‘lining g‘arbiy qismida joylashgan bo‘lib, 1975-yil 26-noyabrdan Forish va Do‘stlik tumanlari hududlari o‘rnida tashkil etilgan.

Arnasoy tumani shimol va shimoli-g‘arbda Forish, janubda Zafarobod, janubi-sharqda Paxtakor, sharqda Do‘stlik, shimoli-sharqda Mirzacho‘l tumanlari bilan chegaradosh (1-rasm).

Tumanning maydoni 0,49 ming km² ni, aholisi esa 48,7 ming (01.01.2024 y.) kishini tashkil etadi.


Arnasoy tumani 13 ta mahalla fuqarolari yig‘inidan (Baxtli, Bobur, Bo‘ston, Do‘stlik, Gulbahor, Oltin Vodiy, Tinchlik, Yangibо‘ston, Zarafshon, G‘oliblar, G‘ofur G‘ulom, Chinobod, Cho‘lquvar) iborat. Tuman markazi – G‘oliblar shaharchasi tumanning janubi-g‘arbiy qismida joylashgan.



1-rasm. Arnasoy tumanining Jizzax viloyatida tutgan o‘rni

2024 yilning 1 yanvar holatiga ko‘ra, Arnasoy tumani doimiy aholi soni 48,7 ming kishini tashkil qildi va yil boshidan 0,6 ming kishiga yoki 1,24 foizga


ko‘paydi. Tuman ushbu ko‘rsatkichga ko‘ra viloyatda so‘nggi o‘rinlardan birida (Yangiobod tumanidan oldin) turadi (2-rasm).



2-rasm. Jizzax viloyati tumanlarining doimiy aholi soni (01.01.2024 y)

2024 yilning 1 yanvar holatiga ko‘ra tuman aholisining 50,7 foizi erkaklar va 49,3 foizini ayollar tashkil etadi. Demak, Arnasoy tumanida erkaklar soni ayollar soniga nisbatan ko‘proq ekanligini kuzatishimiz mumkin.

Arnasoy tumanida doimiy aholi soni 2010 yilda 39,1 ming, 2015 yilda 42,4 ming, 2020 yilda 45,9 ming va 2024 yilda 48,7 ming kishini tashkil etdi. Tuman aholi soni dinamikasini tahlil qiladigan bo‘lsak, 2010 yildan hozirgi davrgacha aholi soni kichik miqdorda (yiliga 1000 kishi atrofida) oshib borgan (3-rasm).



3-rasm. Arnasoy tumani doimiy aholi soni (2010-2024 yillar orasida)

Tug‘ilish darajasi. 2023 yilning yanvar-dekabr holatiga Arnasoy tumanida tug‘ilganlar soni 1 102 kishini tashkil qildi va 2022 yilning shu davriga (1 158 kishi) nisbatan minus 56 kishiga kamaydi. Tug‘ilish koeffitsienti mos ravishda 22,6 promilleni tashkil qildi va 2022 yilning shu davriga (24,1 promille) nisbatan minus 1,5 promillega kamaygan.

O‘lim darajasi. 2023 yilning yanvar-dekabr holatiga Arnasoy tumanida o‘lganlar soni 232 kishini tashkil qildi va 2022 yilning shu davriga (190 kishi) nisbatan 42 kishiga o‘limlar soni ko‘paydi. Mos ravishda o‘lim koeffitsienti 4,8 promilleni tashkil qildi (2022 yilning tegishli davrida 3,9 promille).

Tabiiy o‘sish. Yuqoridagi jadvaldan shuni ko‘rish mumkinki 2023 yilning yanvar-dekabr holatiga Arnasoy tumanida 870 kishini tashkil qildi va 2022 yilning shu davriga (968 kishi) nisbatan kamayganini ko‘rish mumkin.

Nikohlar va ajralishlar. 2023 yilning yanvar-dekabrida FHDYO organlarida 305 ta nikohlar va 44 ta ajralishlar ro‘yxatga olindi. Ming kishiga nisbatan 6,3 ga nikoh (2022 yilning tegishli davrida 6,4 ga) va 0,9 ga ajralishlar (2022 yilning tegishli davrida 1,1 ga) to‘g‘ri keladi.

Migratsiya. 2023 yilning yanvar-dekabr oylarida Arnasoy tumani bo‘yicha ko‘chib kelganlar soni 167 kishini, shu davr mobaynida ko‘chib ketganlar soni esa 389 kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig‘i minus 222 kishiga (2022 yilning shu davrida minus 209 kishi) tashkil etadi.


I-jadval

Arnasoy tuman aholisining demografik ko‘rsatkichlari
(2022-2023 yillar yanvar-dekabr oylarida)

| | kishi | | | har 1000 aholiga, nisbatan | | |
|----------------------|-------------|-------------|---------------------|----------------------------|-------------|---------------------|
| | 2022 yil | 2023 yil | o‘sish, kamayish | 2022 yil | 2023 yil | o‘sish, kamayish |
| Doimiy aholi soni | 48 100 | 48 700 | +600 | - | - | - |
| Tug‘ilganlar | 1 158 | 1102 | -56 | 24,1 | 22,6 | -1,5 |
| O‘lganlar | 190 | 232 | +42 | 3,9 | 4,8 | +0,9 |
| Tabiiy o‘sish | 968 | 870 | -98 | 20,1 | 17,9 | -2,2 |
| Nikohlar | 309 | 305 | -4 | 6,4 | 6,3 | -0,1 |
| Ajralishlar | 52 | 44 | -8 | 1,1 | 0,9 | -0,2 |
| Ko‘chib kelganlar | 171 | 167 | -4 | 3,6 | 3,4 | -0,2 |
| Ko‘chib ketganlar | 380 | 389 | +9 | 7,9 | 8,0 | +0,1 |

Aholi zichligi va urbanizatsiya darajasi. 2024 yilning 1 yanvar holatiga ko‘ra tuman aholisining zichligi 98,8 kishini tashkil etdi. Tuman ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha Jizzax viloyatida o‘rtal o‘rinlarda turadi (4-rasm).


Tuman aholi zichligi viloyat (71 kishi) va mamlakatimiz (81,9 kishi) aholi zichligiga qaraganda birmuncha yuqoriroq turadi.



4-rasm. Jizzax viloyati tumanlarining aholi zichligi (01.01.2024 y)

Arnasoy tumanida urbanizatsiya darajasi birmuncha past hisoblanadi. Bunga sabab tumanning qishloq xo'jaligiga ixtisoslashganligi va sanoatning rivojlanishi past darajada ekanligini keltirishimiz mumkin.

Tumanning urbanizatsiya darajasi 2010 yilda 36,6%, 2015 yilda 34,4%, 2020 yilda 34,2% va 2024 yilda 34,5%ni tashkil etgan (5-rasm).



5-rasm. Arnasoy tumani urbanizatsiya darajasi (2010-2024 yy)

Xulosa va takliflar:

Xulosa qilib aytganda, Arnasoy tumani Jizzax viloyatidagi aholi soni eng kam bo'lgan tumanlardan biri bo'lishiga qaramay, aholining tabiiy o'sish sur'atlari viloyatning ko'plab tumanlariga qaraganda birmuncha yuqori hisoblanadi. Lekin,

tumanda migratsiya jarayonlari salbiy ko‘rsatkichga ega bo‘lgani tufayli aholining o‘sishi past holatda bo‘lishiga olib kelmoqda.

Tumanda xo‘jalik tarmoqlari, shuningdek, infratuzilmani rivojlantirish va yaxshilash natijasida ko‘chib ketuvchilar sonini kamaytirishga erishish mumkin.

Umuman olganda, Arnasoy tumanidagi demografik vaziyat aholining o‘sishi, tabiiy o‘sishning yuqoriligi, mexanik o‘sishning pastligi bilan boshqa hududlardan ajralib turadi. Ushbu holat esa tumanning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga sharoit yaratib beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Avezov M.M. va boshqalar. Arnasoy geografiysi: Monografiya. – Toshkent: “Universitet”, 2024
2. Hakimov Q.M., Adilova O.A. Jizzax viloyati geografiysi. – Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2015
3. Soliyev A.S., Jumaxanov Sh.Z., Toshpo‘latov A.M. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya. – Namangan: “MASHRAB” nashriyoti, 2024
4. Tojiyeva Z.N. Aholi geografiysi. – Toshkent: “Noshir” nashriyoti, 2019
5. Солиев А. Ўзбекистон географияси. – Т, 2014.
6. Тожиева З.Н. Ўзбекистон аҳолиси: ўсиши ва жойланиши (1989-2009 йй.). Монография. – Т.: «Fan va texnologiya», 2010.
7. Arnasoy tumanining statistik axborotnomasi. 2023 yil
8. <https://jizzaxstat.uz/uz/rasmiy-statistika>